**Bajarilishi uch yilga mo‘ljallangan amaliy loyihalar mavzusi**

<table>
<tr><th colspan="3">“Veterinariya va chorvachilik fanlari” yo‘nalishi</th></tr>
<tr><th>№</th><th>Amaliy<br>loyiha mavzusi</th><th>Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija</th></tr>
<tr><td>1</td><td>Fitoterapiya veterinariya-yirik shoxli hayvonlarda tug‘ruqdan keyingi endometritlarni davolash va oldini olishda iqtisodiy samaradorligi yuqori bo‘lgan mahalliy dori vositalarini yaratish<br></td><td>Tadqiqotning shakli: Fitoterapiya veterinariya-yirik shoxli hayvonlarda tug‘ruqdan keyingi endometritlarni davolash va oldini olishda iqtisodiy samaradorligi yuqori bo‘lgan mahalliy dori vositalarini yaratish bo‘yicha amaliy loyiha bajariladi.<br>Ilmiy-tadqiqot natijalari:<br>- sigirlarda tug‘ruqdan keyingi endometritlarni keltirib chiqaruvchi sabablarini, kechishi, ertachi diagnostikasi, davolash va oldini olish usullari o‘rganiladi;<br>- aholi xonadonlarida va chorvachilik fermer xo‘jaliklarida sigirlarda endometritlarni oldini olishda 100% tabiy dori vositalarni yaratiladi,endometritlarda ajraladigan ekssudatlardan mikroorganizmlar turlarini aniqlash va ularning antibakterial dori vositalariga chidamliligi aniqlanadi;<br>- Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatlari hududlarida o‘sadigan mavjud dorivor o‘simliklar aniqlanadi va ularning tarkibidagi dorivor moddalar aniqlandi, dorivor o‘simliklardan yallig‘lanishga qarshi va antibakterial, antiseptik xususiyatiga ega o‘simliklar tanlab olinib ulardan dori preparatlarini ishlab chiqish texnologiyalari yaratiladi;<br>- dorivor o‘simliklardan ekstrakt,damlama,qaynatmalar tayyorlash texnologiyalari ishlab chiqiladi.<br>Natijalarni sinovdan o‘tkazish: Tadqiqot natijalari Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi.<br>Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.</td></tr>
<tr><td colspan="3">Jami yillik: bazaviy hisoblash miqdorining 1000 barobari</td></tr>
</table>

***Amaliy loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi bazaviy hisoblash miqdorining 3000 barobaridan oshmasligi va bajarish muddati uch yilga mo‘ljallangan bo‘lishi shart***

**Bajarilishi uch yilga mo‘ljallangan amaliy loyihalar mavzusi**

<table>
<tr><th colspan="3">“Veterinariya va chorvachilik fanlari” yo‘nalishi</th></tr>
<tr><th>№</th><th>Amaliy<br>loyiha mavzusi</th><th>Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija</th></tr>
<tr><td>2</td><td>Orolbo‘yi hududlarida asalari boqishning o‘ziga xos yangi texnologiyasini ishlab chiqish<br></td><td>Tadqiqotning shakli: Orolbo‘yi hududlarida asalari boqishning o‘ziga xos yangi texnologiyasini ishlab chiqish bo‘yicha amaliy loyiha bajariladi.<br>Ilmiy-tadqiqot natijalari:<br>- Orolbo‘yi mintaqalariga moslashgan mahalliy populyatsiyadagi asalarilar tanlanadi va ko‘paytiriladi;<br>- mahalliy populyatsiyadagi asalari oilalaridan mintaqaga xos bo‘lgan texnologiyalar asosida sun’iy usulda ona asalari yetishtiriladi;<br>- Orolbo‘yi hududlarida o‘sadigan nektarbop o‘simliklar turlari aniqlanadi va ularning sho‘rga chidamli bo‘lgan navlari tanlab ekiladi, ularning asalari oilasini mahsuldorligini oshirishdagi ahamiyati, Orolbo‘yi hududlarida asalari oilalaridan to‘plangan tabiiy asalni tarkibidagi biologik faol moddalar o‘rganiladi va asal sifatini yaxshilash bo‘yicha me’yoriy hujjatlar ishlab chiqiladi;<br>- Orolbo‘yi hududlarida asalari oilasi mahsuldorligini oshirishda “Asalari yo‘l xaritasi” dasturi tuziladi va hududda asalarichilik sohasini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi;<br>- mahalliy populyatsiyadagi asalari oilalaridan ertagi asalari paketlari ishlab chiqariladi, eksport qilishga yo‘naltiriladi;<br>- Orolbo‘yi hududlarida asalarichilik tarmog‘ini yanada rivojlantiriladi sohani iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari har tomonlama o‘rganiladi va amaliy xulosalar tayyorlanadi.<br>Natijalarni sinovdan o‘tkazish: Tadqiqot natijalari Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi.<br>Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.</td></tr>
<tr><td colspan="3">Jami yillik: bazaviy hisoblash miqdorining 1350 barobari</td></tr>
</table>

***Amaliy loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi bazaviy hisoblash miqdorining 4030 barobaridan oshmasligi va bajarish muddati uch yilga mo‘ljallangan bo‘lishi shart**

**Bajarilishi uch yilga mo‘ljallangan amaliy loyihalar mavzusi**

<table>
<tr><th colspan="3">“Veterinariya va chorvachilik fanlari” yo‘nalishi</th></tr>
<tr><th>№</th><th>Amaliy<br>loyiha mavzusi</th><th>Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija</th></tr>
<tr><td>3</td><td>Orolbo‘yi hududida saksovullar orasida mahalliy yantoq turlarini ko‘paytirish texnologiyasini ishlab chiqish<br></td><td>Tadqiqotning shakli: Orolbo‘yi hududida saksovullar orasida mahalliy yantoq turlarini ko‘paytirish texnologiyasini ishlab chiqish bo‘yicha amaliy loyiha bajariladi.<br>Ilmiy-tadqiqot natijalari:<br>- Orolning qurigan tubida mahalliy iqlim sharoitlariga moslashgan asalari oilalarini boqish yo‘lga qo‘yiladi;<br>- mahalliy yantoq turlari bo‘yicha seleksiya va urug‘chilik ishlari olib boriladi, urug‘chilik bazasi shakllantiriladi;<br>- yantoq urug‘larining unuvchanligini oshirishda mahalliy va xorijiy biopreparatlar ta’siri o‘rganiladi;<br>- mahalliy yantoq turlarini “in vitro” usulida ko‘paytirish mexanizmlari yaratiladi;<br>- Orolning qurigan tubiga ekilgan saksovullar orasidagi mahalliy yantoq turlarining ko‘payish jarayoni monitoring qilinadi;<br>- yantoq turlari bo‘yicha asalari oilasi mahsuldorligiga va asal sifatiga ta’siri o‘rganiladi, sifatli asl mahsulotlarini ko‘paytirish asosida hududda asalarichilik rivojlantiriladi;<br>- Orolbo‘yi hududida saksovullar orasida tuproq-iqlim sharoitlariga moslashgan mahalliy yantoq turlarini yetishtirish texnologiyasi ishlab chiqiladi.<br>Natijalarni sinovdan o‘tkazish: Tadqiqot natijalari Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi.<br>Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.</td></tr>
<tr><td colspan="3">Jami yillik: bazaviy hisoblash miqdorining 735 barobari</td></tr>
</table>

***Amaliy loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi bazaviy hisoblash miqdorining 2205 barobaridan oshmasligi va bajarish muddati uch yilga mo‘ljallangan bo‘lishi shart***

**Bajarilishi uch yilga mo‘ljallangan amaliy loyihalar mavzusi**

| **“Veterinariya va chorvachilik fanlari” yo‘nalishi** | | |
|---|---|---|
| **№** | **Amaliy loyiha mavzusi** | **Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija** |
| **4** | Orolbo‘yi hududlarida chorva uchun ozuqabop ekinlarni yetishtirish va mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha namunaviy texnologik xaritalarni ishlab chiqish  | **Tadqiqotning shakli:** Orolbo‘yi hududlarida chorva uchun ozuqabop ekinlarni yetishtirish va mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha namunaviy texnologik xaritalarni ishlab chiqish bo‘yicha amaliy loyiha bajariladi.<br>**Ilmiy-tadqiqot natijalari:**<br>- Orolbo‘yi hududlarida chorva uchun ozuqa ekinlarini yetishtirish va mahsulot ishlab chiqarish bilan bog‘liq agrotexnologik jarayonlar aniqlanadi;<br>- Orolbo‘yi hududlarida chorva uchun ozuqabop ekinlarni yetishtirish va mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha namunaviy texnologik xaritalarning loyihasi ishlab chiqiladi;<br>- namunaviy texnologik xaritalarning ozuqabop ekinlarni yetishtirish va mahsulot ishlab bo‘yicha ilmiy asoslangan ma’lumotlar bilan to‘ldiriladi;<br>- texnologik xaritalarni chop yetish va tegishli vazirlik hamda idoralarga taqdim qilinadi;<br>- Orolbo‘yi hududlarida chorva uchun ozuqabop ekinlarni yetishtirish va mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha namunaviy texnologik xaritalarni ishlab chiqiladi.<br>**Natijalarni sinovdan o‘tkazish:** Tadqiqot natijalari Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi.<br>**Ilmiy natijalarni chop etish:** Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. |
| **Jami yillik: bazaviy hisoblash miqdorining 2670 barobari** | | |

***Amaliy loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi bazaviy hisoblash miqdorining 8010 barobaridan oshmasligi va bajarish muddati uch yilga mo‘ljallangan bo‘lishi shart***

**Bajarilishi uch yilga mo‘ljallangan amaliy loyihalar mavzusi**

| “Veterinariya va chorvachilik fanlari” yo‘nalishi | | |
|---|---|---|
| **№** | **Amaliy loyiha mavzusi** | **Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija** |
| **5** | Orolbo‘yi hududida baliqchilik sohasida baliq yetishtirishning ilmiy asoslangan usullari va intensiv texnologiyalarni ishlab chiqish  | **Tadqiqotning shakli:** Orolbo‘yi hududida baliqchilik sohasida baliq yetishtirishning ilmiy asoslangan usullari va intensiv texnologiyalarni ishlab chiqish bo‘yicha amaliy loyiha bajariladi.<br>**Ilmiy-tadqiqot natijalari:**<br>- O‘zbekiston sharoitida yangi istiqbolli baliq turi hisoblangan tilyapiya baliqlarni yetishtirishning biologik va texnologik asoslari ishlab chiqiladi;<br>- baliqlarni mahalliy iqlim sharoitida morfometrik ko‘rsatkichlari tahlil qilinadi;<br>- baliqlarni O‘zbekiston iqlim sharoitida dastlabki jinsiy voyaga yetilishi va nasl olishga tayyor baliqlar aniqlanadi;<br>- ona baliq to‘dalari shakllantiriladi, suv haroratini nazorat qilgan holda sun’iy urchitiladi va urug‘lik olinadi hamda sanoat usulida chavoq yetishtirishning muhim bosqichlari tadqiq qilinadi;<br>- ona baliq, chavoq hamda tovar baliqlarni mahalliy bozorda mavjud ozuqalardan foydalangan holda oziqlantirishning ilmiy asoslari yaratiladi;<br>- baliqlarni tuproqli havzalarda, yopiq aylanma suv ta’minoti qurilmalarida hamda kichik hajmli intensiv o‘stirish texnologiyalarida yuqori tig‘izlikda yetishtirish texnologiyasi ishlab chiqiladi.<br>**Natijalarni sinovdan o‘tkazish:** Tadqiqot natijalari Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi.<br>**Ilmiy natijalarni chop etish:** Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. |
| **Jami yillik: bazaviy hisoblash miqdorining 1600 barobari** | | |

***Amaliy loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi bazaviy hisoblash miqdorining 4800 barobaridan oshmasligi va bajarish muddati uch yilga mo‘ljallangan bo‘lishi shart***